
“ABDULLABAYON” MFY: MAHALLA KICHKINTOYLARIGA MUNOSIB TUHFA

Eng mehrli va bolajon xalqni ko'rganmisiz? Eng yaxshi noz-ne'matlar va shirinliklarni eng avval kelajak egalari – kichkintoylarga kim tutadi? Albatta, katta-yu-kichikning hurmatini joyiga qo'yadigan, tantilikda yagona va saxovatpesha o'zbek xalqi.

Avvallari “Abdullabayon” mahallasidagi ko'rimsizgina 39-davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining binosiga qadam ranjida qilgan bo'lsangiz, devorlari u yer – bu yerdan darz ketgan bo'yoqlari ko'chgan, guruhlarning xonalari ta'mirtalab joyni ko'rib, “shu ham tarbiya maskanimi?” deganingizni bilmay qolardingiz.

Tuman hokimi va mutasaddilar maktabgacha ta'lim tashkiloti binosining holatini ko'rib chiqib, “bu yerda yangi bog'cha qurish kerak”, degan to'xtamga kelishdi. Ushbu bog'cha qurilishi uchun 1 mlrd. 200 mln. so'm mablag' ajratilib, “Azimjon Azizbek Baraka savdo” MChJ qurilish tashkiloti tomonidan qurilish ishlari olib borildi. Rostini aytish joizki, quruvchilar imkoniyatlarini ishga solishdi. Qisqa muddatlarda yangi zamonaviy bog'cha binosi barpo etildi.

Har bir guruh uchun xojatxonalar ajratilib, bolajonlarning yuvinishlari va toza-ozoda yurishlari uchun yuvinish vositalari muhayyo qilindi.

Mustaqilligimizning 31 yillik bayrami arafasida ushbu maktabgacha ta'lim tashkilotining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Ochilish marosimida tuman hokimi, sektor rahbarlari, mahalla faollari ishtirok etishdi.

-Tashkilotimizda 3ta guruhda qariyb 120 nafar bolajonlar tarbiyalanmoqda. Bog'chamizga yetarli oziq-ovqat mahsulotlari, har xil meva sharbatlari, go'sht va sabzavotlar bilan birgalikda oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib turilibdi. Hamshira Turdalieva Madina bolalarning salomatligini nazoratga olgan bo'lsa, qo'li shirin oshpazlardan Vohidova Husniobod va Pochchaeva Shahodatxon ularga har kuni mazali taomlar pishirib berishmoqda. Biz uchun kichkintoylarning namunali tarbiyasi juda muhim. Bizning ezgu maqsadimiz – bolajonlarni zamon talablari asosida savodli qilib tarbiyalash, - dedi tashkilot direktori Shahlo Karimova.

Abdullabayon mahallasida yashovchi fuqarolar ko'rsatilayotgan bunday g'amxo'rliklardan juda xursand. Har kuni ertalab ota-onalar jajji farzandlarini bog'chamizga quvona-quvona olib kelishmoqda. Yangi qiyofa va ko'rkamlik kasb etgan bu ta'lim maskanidan kelajagimizning munosib egalari uchirma bo'lishiga ishonamiz.

2022-08-30 15:17:13